



GULBADANBEGIM SHAXSIGA TAVSIF

Saidqulova Irodaxon Obidjon qizi

saidqulovairoda@gmail.com

Ўzbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti tarix
yonalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10254723>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-November 2023 yil

Ma'qullandi: 28- November 2023 yil

Nashr qilindi: 30-November 2023 yil

KEY WORDS

Gulbadan begim, makka, Margaret Rumer Goden, "Humoyunnoma", "Akbarнома", Khabatullo, xaqir, Dildor begim, Soliha Sulton.

ABSTRACT

Maqolaning asl mohiyati temuriy malika Gulbadan begim haqida bōlib, uning shaxsi, hayoti, farzandlari, ijodi haqida. Gulbadan begim o'sha davrning o'g'ir vaziyatiga qaramay ilmiy izlanishdan toxtamay ham oqila rafiqqa ham zukko-bilimdon malika bōldi. Hatton uni chet el adiblari ham e'tirof etdi. Bu maqolada chet el adibi unga atab yozgan asar haqida ma'lumot berilgan. Bundan tashqari Gulbadan begimning eng mashhur asari "Humoyunnoma" bilan ham tanishishingiz mumkin.

Gulbadan begim Zahiriddin Muhammad Boburning Dildor begim nomli xotinidan tug'ilgan bōlib, Bobur uni juda yaxshi kōrgan. U 1523-yil Kobulda tug'ilgan. Uning onasi Dildor begim haqiqiy ismi — Soliha Sulton begim bōlib, Zahiriddin Muhammad Boburning amakisi Sulton Muhammad Mirzoning qizi edi.

Gulbadan begim o'z shaxsiyati haqida sōz yuritganda oqilalik bilan o'zini "bu haqir "ya'ni "bu ojiz banda" deb sōz yuritadi.

Aslida Gulbadan begim oddiy banda, oqila ayol balki, Hindistondagi buyuk boburiylarning asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur podsho G'oziyning qizi edi¹.

Gulbadan begimni tarbiyasini Z.M.Bobur Mohim begimga topshirgan. Mohim begim Humoyun Mirzoning onasi, Boburning sevikli katta xotini edi. Mohim beginning Humoyun Mirzodan boshqa yana 2 ta qizi va 2 ta o'g'li bor edi ammo ular yoshligida vafot etadi. Judolik dardini biroz yengillashtirish uchun Bobur qizini tarbiyasini aynan unga topshiradi. Mohim begim ham g'oyat gōzal, xushfel', oqila ayol edi. Gulbadan begim har ikki onasini ham yaxshi kōrgan va samimiy munosabatda bōlgan. U o'z onasini asarida "Dildor begim" deb, Mohim begimni esa "onam hazratlari" deb ataydi. Gulbadan begim 1529-yilgacha Kobulda yashaydi. Bobur Hindistonni qōlga kiritgach, Mohim begim bilan birga podshoh otasining huzuriga Agraga boradi. Otasi Bobur vafotidan sōng, akasi Humoyun podshoh saroyida yashaydi. Gulbadan begim yoshligidan juda idrokli, kitobsevar, odobli qiz bōlgan. U 7-8 yoshlaridan Humoyun, Komron, Askariy uning yonida bōlishgan. 1539-yilda Gulbadan begimni Xizr Xōjahonga turmushga beradilar. U bir o'g'li kōradi va ismini Saodatyor qōyadi. 1556-yil Humoyun podshoh vafotidan sōng taxtga uning o'g'li Jaloliddin Akbarsho (1542-1605) o'tirgach

1 S.Ġaniyeva Har kimki, meni sōrasa salomimni degil. Toshkent. 2000.

shohning onasi bilan Gulbadan begim saroyga Dehliga qaytib ketadilar. Shundan sōng u umrining oxirigacha jiyani Akbarshoh saroyida yashaydi. Gulbadan begim ōz zamonasining donishmand ayollaridan edi. U jiyani Jaloliddin Akbarshohning " Firdavs makon va jannat oshyon Hazrat haqidagi voqealardan nimaniki bilsangiz, yozingiz, " degan ishorasiga muvofiq " Humoyunnoma " nomli ajoyib va ġaroyib tarixiy asarni yozishga kirishdi².

"Humoyunnoma" Bobur bilan Humoyunning hayoti va sarguzashtlarining muxtasar tarixi bōlib, mantiqan " Boburnoma"ning davomi hisoblanadi. Bu asar 1552-yili Komron Mirzoning kōziga mil tortilishi daxshatli voqeasi bilan tugallanmay qoladi. "Humoyunnoma"da yozilishicha Humoyun Hamidabonuga uylanadi.

"Gulbadan" asarida Humoyun bu xususida tush kōrgani bayoni bor: bir avliyo kelib, tushkunlikka tushganida unga tasalli berib, " Mardona bōl, ġam chekma " deya qōlidagi asoni unga tutqazibdi va " Ollohning marhamati bilan sen bir ōġil kōrasan, ismini Jaloliddin Muhammad Akbar qōygin" debdi. Humoyun avliyoni ismini sōraganda "Janda FIL Ahmad Jomiy, u farzand meng naslimdan bōladi" deb javob beribdi³.

Hamidabonuning 1542-yil 12-avgustda Amarsot degan joyda erta tongda kōzi yoriydi.

1902-yili Annetta Beverij tomonidan "Humoyunnoma " ingliz tiliga, 1959-yili esa S.Azamjonova tomonidan ōzbek tiliga tarjima qilinib, chop etildi. Hozirda A. Qurbonbekov bu asarning yangi tarjimasini tayyorladi. Asarning muallifi haqida ingliz adibasi Margaret Rumer (1904-1998) 1980-yili "Gulbadan " nomli kitob yozdi. Asar 4 qismdan iborat.

1. Boburshoh davri
2. Boburshoh
3. Humoyun hukmronligi davri
4. Akbar kumronligi davri

Gulbadan ōz asarida saroy ahlining hayot tarzi, tōy va aza bilan boġliq udumlari, uy-rōzġor asboblari, kiyim - kechak turlari haqida hikoya qiladi. Afsuski asarning oxirgi qismi ōsha zamonning oġir yillarida yōqolib ketgan.

Mir Mahdi Mirzoning "Tazkirat ul- havotin " asarida keltirilgan "Sevgisiz hayotda ma'no yōq" mazmunidagi ikki baytga qaraganda , Gulbadan begimning ġazaliyotdan ham habari bōlgan⁴.

"Akbarnoma" asarining muallifi Abul Fazlning bergan ma'lumotiga kōra 1575-yilda Gulbadan begim Kabatullo ziyoratiga jōnab ketadi va 1582-yilda kōp qiyinchiliklar bilan ziyoratgohdan qaytib keladi⁵.

Ba'zi manbalarda yozilishicha Gulbadan begim Makkaga Komron Mirzo bilan borgan. Bundan tashqari Humoyunning katta xotini Xojibegim , Boburning kanizagi Gulnor, xonanda Sarvqad, nabiralaridan biri Gulsum ham birga borgan. Gulbadan begim 1603-yilda 80 yoshida vafot etadi. Akbarshoh uni katta hurmat ehtirom bilan darn etadi.

2T. Fayziyev. Temuriy malikalar. Toshkent. 2013.

3 S. Ğaniyeva. Har kimki meni sōrasa salomimni degil. Toshkent. 2000.

4 T. Fayziyev. Temuriy malikalar. Toshkent. 2013.

5 S. G'aniyeva. Har kimki meni sōrasa salomimni degil. Toshkent 2000.

*Xulosa shuki, Gulbadan begim o'z davrining munosib temuriy malikasi bo'la olgan. U haqda Margaret Remur Goden shunday degan: " U ertaklarda uchraydigan afsonaviy qahramonlarga xos nafis ism " Gulbadan " degan nom bilan atalardi. Umrining to'fonli va shiddatli damlarida ham u o'zining "Gulbadan"ligini saqlab qola olgan mo'tabar bir inson edi*⁶.

*Darhaqiqat, Bobur davrida juda ko'p urushlar, Samarqand taxti uchun kurashlar bo'ldi. Shuning uchun ham Bobur o'zining yurtidan ketishga majbur bo'ldi. Gulbadan begim shunday og'ir vaziyatlarda otasiga dalda bo'ldi. U o'z kitobida ya'ni "Humoyunnoma "da bu haqda quyidagilarni yozgan edi: " Xudoga tavakkal qilib Badaxshonot va Kobulga yuzlandilar"*⁷.
Umuman olganda boshqa temuriy malikalar ham bor. Masalan: Gavxarshodbegim, Xonzodabegim va boshqalar. Ammo Gulbadan begim o'ziga xos, boshqalardan ajralib turardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Turgun Fayziyev. "Temuriy malikalar". Toshkent. 2013.
2. Usmon Jorayev. Qamas Usmonov. Gulrang Jorayeva. Naim Norqulov. O'zbekiston tarixi 8-sinf Toshkent. 2019.
3. Suyima G'aniyeva. Har kimki meni so'rasa salomimni degil. Toshkent. 2000.
4. Saboxat Azimjonova. Gulbadanbegim. Guliston jurnali. 1990. 11-son.
5. kitobxon.com
6. marifat.uz

INNOVATIVE
ACADEMY

⁶S. G'aniyeva. Har kimki meni so'rasa salomimni degil. Toshkent. 2000.

⁷ U. Jorayev. N. Norqulov. Q. Usmonov. G. Jorayeva. O'zbekiston tarixi 8-sinf . Toshkent. 2019.